



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA IFODALI O'QISHNI TASHKIL QILISH

Tojkarimova Moxiraxon Anvarjon qizi

*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

moxiratojkarimova660@gmail.com

Umarova Durdona Nu'monjon qizi

*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

udurdona418@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini qanday qilib ifodali o'qishga o'rgata olish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olish, nutqini erkin bayon etish vazifalari haqida.

Kalit so'zi: Ifodali o'qish, so'z, bo'g'in, talaffuz, nutq.

Abstract: In this article, how to teach elementary school students to read expressively, pronounce words correctly, divide them into syllables correctly, and express their speech freely about the tasks.

Key word: Expressive reading, word, syllable, pronunciation, speech.

Аннотация: В этой статье рассказывается, как научить учащихся младших классов выразительно читать, правильно произносить слова, правильно делить их на слоги, свободно выразить свою речь, о задачах.

Ключевые слова: Выразительное чтение, слово, слог, произношение, речь.

KIRISH:

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va murakkab bo'g'ini hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qishga o'rgatish sinflar bo'yicha o'qish mazmunini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish va mashg'ulotlarni olib borish kerak. Bola maktabga kelganida avval o'qish, yozishni o'rganadi. Asta-sekin unga mustaqil kitob tanlay boshlaydi, o'qigan kitobini to'g'ri baholay olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar so'zlarni to'g'ri bo'g'inlarga ajrata olishi kerak, buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchi bilan ishlash o'quvchilar bilan to'g'ri muomalada bo'lishi zarur. Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning ma'lum metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarida o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas



uyg'otadi. Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravn, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

ASOSIY QISM:

Ifodali o'qishda:

- a) Nafasdan to'g'ri foydalana olish;
- b) Adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;
- c) So'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, aniq talaffuz etish;

Boshlang'ich o'quvchilarini ifodali o'qitishda asosan shu 3 qoidaga amal qilishi kerak. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qishga o'rgatish har bir o'quvchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish, bo'g'inlarni to'g'ri ajrata olishi va normal tezlikda o'qishi orqali bola gapdagi asosiy, mazmunini anglaydi. Bolaning o'qish tezligini normallashtirishda 2ta narsaga e'tibor berishi kerak.

1. Normal tezlikda o'qish namunasini ko'rsatish;
2. Ichidagi o'qish yuzaki bo'lmasligi uchun topshiriqlar berish yo'li bilan tekshirish;

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Mamlakatimiz yoshlarini jahonning taraqqiy etgan davlat yoshlari bilan har jabhada bellasha oladigan kerak bo'lsa ulardan o'z ustunligi bilan ajralib turishini ta'minlashning yagona yo'li ta'lim va tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'lim mazmunining ana shunday asosiy maqsadlari sirasiga o'quvchilarni mustaqil o'qitishga o'rgatish ifodaviylikni kuchaytirish, dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil va ifodaviy ishlash kabilarni kiritish mumkin. O'quvchilarda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qib o'rganayotgan fan asoslarini mukammal egallashlari uchun ularni, birinchi navbatda, mustaqil fikrlash, mushohada yuritish ko'nikma va malakalari bilan qurollantirishimiz lozim"¹– deydi. Boshlang'ich sinf bosqichida o'quvchilarni mustaqil va ifodali o'qishga o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish darslari muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ifodali o'qitish, ko'nikma hosil qilish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 1997-yilda bo'lib o'tgan tarixiy 3-sessiyada "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash

¹ Islom Abdug'aniyevich Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2008-yil 84-bet



milliy dasturi” haqida fikr yuritar ekan “Bilim olish o‘z yo‘liga, lekin o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish har bir pedagogning eng muhim va birinchi darajadagi vazifasi bo‘lishi lozim” deb ta’kidlaydi. Ifodalilik ko‘rgazmalilik demakdir. Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O‘qituvchi ifodali o‘qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o‘quvchilarga ko‘rgazmali ravishda yetkazadi. O‘qish darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, hamda o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa o‘quv predmetlari orasida alohida o‘rin tutadi.

O‘qish darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish malakalari takomillashib, to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish badiiy asar g‘oyasini tushunish qobiliyatlari o‘sib boradi. 2-sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining 1-qism 1-bo‘limida “Katta bo‘lsam, Nobel mukofotini olaman!” mavzusida keltirilgan quyidagi hikoyasi “Nobel olaman!”, ya’ni bu hikoya o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, tabiatni asrashga, o‘quvchilarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga intilishiga yordam beradi.

Ismim – Muhammad, familiyam – Haydarov. Ikkinchi sinfda o‘qiyman. Men tabiatdagi g‘aroyib narsalarga qiziqaman. Shuning uchun ham eng sevimli fanim – tabiiy fanlar. Tabiatda sirli narsalar ko‘p. Oddiygina yomg‘ir yoki shamolning qanday paydo bo‘lishi haqida o‘qisam, hayratlanib ketaman. Ayniqsa, osmondagi yulduzlar, sayyoralar haqida ko‘proq bilgim keladi. Katta bo‘lsam, astronom bo‘laman. NASA, SpaceX kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlayman. Ularga koinotni o‘rganishda yordam beraman. O‘zim ham fazoviy kemalar yasayman. Ularda fazogirlar Oy va Marsga uchishadi. Yaxshi astronom bo‘lish uchun hamma fandan a’lo baholarga o‘qish kerak. Fizika, matematika va kimyoni chuqurroq o‘rganish kerak. Chunki boshqa galaktikalarga uchsak, bu bilimlar kerak bo‘ladi. Kelajakda Nobel mukofotini olmoqchiman. O‘zbek olimlari haligacha bu mukofotni olmagan. Men Nobel mukofotini olgan birinchi o‘zbekistonlik bo‘lishim mumkin. Buning uchun esa hamma odamlarga foyda keltiradigan katta ish qilish kerak. Bu oson emasligini bilaman. Lekin men albatta harakat qilib ko‘raman.

2-sinfda o‘quvchilarda so‘zni butunicha o‘qish malakalari shakllanadi va to‘g‘ri, ifodali o‘qishga intilish yaqqol seziladi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o‘qishga harakat qiladi. O‘qituvchi yordamida o‘qitilgan matnlarni tez anglaydi, undagi ba’zi bir voqea-hodisalarni so‘z orqali ifodalashga urinadilar. O‘qish va



gapirish jarayonida o'quvchilarning adabiy til normalariga rioya qilish talab qilinadi. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o'qitiladi va o'qish ma'sulyati orttiriladi. O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida ta'lim to'g'risida fikr yuritir ekan: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgaraydi."

XULOSA:

Xulosa qilib aytish kerakki, har bir o'qituvchi bugunni ertasini kelajagini yaratishda o'quvchilar bilan birga ishlashi kerak. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o'rgatish, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish kerak. Buning uchun o'qituvchilar o'z kasbini sevib, o'sha kasbga ma'sulyat bilan yondashish zarur. O'quvchilar so'zlarni, harflarni to'g'ri talaffuz qilishi va bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olishi zarur. O'quvchilarni buning uchun kitobni sevishga, kitob o'qishga undashimiz kerak. O'quvchilar qancha ko'p kitob mutolaa qilsa, shundagina o'z maqsadimizga erisha olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov."Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2008-yil 84-bet
2. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 658–660. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.671>
3. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Valiyeva Nargiza. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 637–639. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.665>
4. Tojkarimova Moxira. (2023). BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(1), 20–25. Retrieved from <http://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/5>
5. Tojkarimova, M. A. qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM



- TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 824–828. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
6. Badiiy o‘qishning maqsad va vazifalari. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 54-59. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/60>
 7. BOSHLANG‘ICH SINFDA TA‘LIMNING ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 67-71. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/63>
 8. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA‘LIM BERISHDA KO‘RGAZMALI METODLARDAN FOYDALAISH USULLARI. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 60-62. <http://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/61>
 9. DRAMA VA UNING TURLARI. YOIIIT. 2024;2(1):76-81. Accessed January 29, 2024. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/65>
 10. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Jumanova Shahnoza Ikromjonovna. (2023). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHA TLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 661–663. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.672>
 11. Maxliyoxon, O., & Shohsanam, R. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA‘LIM O ‘QUVCHILARINING FIKRLASH SALOHIIYATINI OSHIRISHDA ERTAKLARNING AHAMIYATI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 58-63.
 12. Maxliyoxon, O., & Mohinaxon, E. (2024). BADIY O ‘QISH FANINI BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIGA O ‘QITISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA YECHIMLAR. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 52-57.
 13. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, O. (2024). BADIY O ‘QISH VA DRAMA O ‘QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 27-32.
 14. Maxliyoxon, O., & Mohira, X. (2024). BUYUK O ‘ZBEK SO ‘Z SAN‘ATKORLARINING BADIY MAHORATI VA ULAR ASARLARIDAN IQTIBOSLAR. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 5-9.
 15. Maxliyoxon, O., & Sarvinozxon, O. L. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMDA O ‘QIB TUSHUNISHNING AHAMIYATI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 21-26.
 16. Maxliyoxon, O., & Sohibaxon, V. (2024). BADIY O ‘QISHNING BOLALARNING FIKRLASHIGA TA‘SIRI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 10-14



17. Maxliyoxon, O., & Layloxon, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA TEATR-SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING SHAKLLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 15-20.
18. Maxliyoxon, O., & Nilufar, Y. L. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM SINFLARIDA YOD O 'QISH VA BADIY O 'QISHNING MUHIMLIGI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 46-51.
19. Ahrorjon, A., & Gafurov, X. (2023). IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA FISKAL VA PUL-KREDIT SIYOSATI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 310-313.
20. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ISLOM MOLIYASI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 188-190.
21. Azamjon o'g'li, U. A., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 73-75.
22. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 581-583.
23. JS Ikromjonovna, X Muazzamxon "O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI" *Educational Research in Universal Sciences* 2 (14), 806-81